SHIFOKOR SO`ZI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI
GAZETA 1938 YILDAN “MEDITSINA FANI UCHUN” NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA



Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, o‘z hayotini dunyodagi eng ulug‘ va sharafli ishga – yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlab kelayotgan sizdek mo‘tabar zotlarni, yurtimizdagi barcha pedagog xodimlarni 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda Yangi O‘zbekistonimizning kuch-qudrati va salohiyati, qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuq va marralarimiz, qalbimizdagi olijanob fazilatlarning bezavol manbalaridan biri bu bilim-ma’rifat, tarbiya va madaniyat ekanini yanada chuqur his etamiz. Aziz farzandlarimizni ayni shu ruhda tarbiyalab, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan barcha zahmatkash muallimlarimizga, ustoz-domlalarimizga samimiy minnatdorlik bildirib, cheksiz hurmat va ehtirom bilan ta’zim qilamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Bog‘cha va maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan har bir bola uchun bilimlar eshigi, mo‘jizalar olamini ochadigan muhtaram o‘qituvchi va murabbiylar timsolida biz yangi shaxs, yangi avlod tarbiyachilarini ko‘ramiz. Shu yo‘lda shogirdlariga ko‘z nuri, yurak qo‘rini berib mehnat qiladigan, o‘z kasbiga sodiq va jonkuyar bunday insonlar, hech shubhasiz, milliy pedagogikamizning oltin fondini tashkil etadi. Men Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini aynan mana shunday fidoyi ustozlar faoliyatida, ularning kasb mahorati, qalb saxovatida ko‘raman.

Maktab kelajak bog‘i bo‘lsa, muallim shu maskanda umid nihollarini o‘stiradigan mohir bog‘bondir. O‘qituvchi – mehr daryosi, ezgulik bulog‘i, ma’rifat quyoshidir. Shu bois, bu mas’uliyatli soha xodimlarining mehnatini ulug‘lash va qadrlashdan hech qachon charchamaymiz.

Aziz do‘stlar!

Bugungi kunda erishayotgan, havas qilsa arziydigan natijalarimiz orasida ta’lim yo‘nalishidagi yutuqlarimiz biz uchun alohida qadrli desam, o‘ylaymanki, butun xalqimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman. Chunki bundan atigi o‘n yil oldin ijtimoiy hayotimizda g‘oyat og‘ir, ota-onalarni eng qiynaydigan soha – aynan ta’lim-tarbiya sohasi, eng kamsitilgan kasb egasi esa o‘qituvchilar edi. Sizlar bilan birga qattiq ishlab, qancha-qancha muammolarni hal qildik, oldimizda turgan to‘siq-g‘ovlarni bartaraf etdik. Hozirgi vaqtda ta’lim sohasi jadal rivojlanayotgan sohaga, o‘qituvchilik esa obro‘-e’tiborli kasbga aylanmoqda.

Buni quyidagi misollarda yaqqol ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi 40 ming o‘qituvchi 1 ming dollar, ularning 1 ming 500 nafari 2 ming dollardan ziyod miqdorda maosh olmoqda. Joriy yil yangi formatda o‘tkazilgan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining 208 nafar tuman va shahar bosqichi g‘oliblariga ilk bor 616 million so‘mdan mukofot berildi. Bunday rag‘batlantirish mexanizmlari kelgusi yilda bog‘cha tarbiyachilari va texnikum ustalari faoliyatiga ham joriy etiladi.

So‘nggi o‘n yilda yurtimizda 1 million 800 ming o‘rinli bog‘cha, 1 million 500 o‘rinli maktablar barpo etganimiz, 10 mingdan ziyod bog‘cha va maktabni zamonaviy ko‘rinishga keltirganimiz tariximizda misli ko‘rilmagan natijalardir. Prezident, ixtisoslashgan va ijod maktablari kabi mutlaqo yangi namunadagi ta’lim dargohlari paydo bo‘lgani, oliy o‘quv yurtlari soni 77 tadan 205 taga o‘sib, ulardagi qamrov 45 foizga yetgani ham albatta katta ijobiy o‘zgarishdir.

Sohada xususiy sektor izchil rivojlanib, sog‘lom raqobat muhiti shakllanmoqda. Eng muhimi, ana shunday sharoitda ishlash, bilim va malakasini oshirish va namoyon etishga qodir bo‘lgan yangi pedagoglar avlodi maydonga chiqmoqda.

Ta’lim islohoti yo‘lidagi bunday ulkan yutuqlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Tabiiyki, bularning barchasi o‘quv-tarbiya ishlarining sifati va samarasini oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 2026-yilda yurtimiz o‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda 228 ta medalni qo‘lga kiritgani, jumladan, mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan xalqaro kimyo va informatika olimpiadalarida o‘g‘il-qizlarimiz yuqori o‘rinlarni egallagani g‘oyat quvonarlidir.

Bir necha kun oldin qadimiy Samarqand shahrida yakuniga yetgan Butunjahon shaxmat va parashaxmat olimpiadalarida g‘olib va sovrindor bo‘lib, Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etgan azamat yoshlarimizning tom ma’noda tarixiy yutuqlarni qo‘lga kiritishida sizlarning hissangiz beqiyos ekanini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

Bu yil o‘quvchilik davrida xorijiy til va fan sertifikatiga ega bo‘lgan farzandlarimiz soni 100 ming nafarga yetdi, 5 mingga yaqin maktab bitiruvchisi esa oliygohlarga kirishda eng yuqori ball to‘pladi.

Nufuzli PISA reytingida 15 yoshli o‘quvchilarimiz tabiiy fanlarni o‘zlashtirish bo‘yicha 32 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, 48-o‘rinni egallagani ham e’tiborga loyiq, albatta.

Oliygohlarimizdagi 185 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgani, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 441 ta qo‘shma ta’lim dasturi yo‘lga qo‘yilgani ham salmoqli ko‘rsatkichdir.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz kelgusi o‘n yilni mamlakatimiz uchun milliy yuksalish davri sifatida belgilab, oldimizga yanada ulkan maqsadlar qo‘ymoqdamiz.

Milliy yuksalishning tayanch asosi – maktab, texnikum va oliygohlar ekanini siz, azizlar albatta yaxshi tushunasiz. Shu bois, bu borada biz avvalo sizlarga – muhtaram ustoz va murabbiylarimizga tayanamiz. Ta’lim-tarbiya tizimi vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda shu yo‘nalishda oldimizda turgan dolzarb vazifalar va ularning yechimlari haqida atroflicha gaplashib oldik.

Ilg‘or pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida Abdulla Avloniy nomidagi davlat mukofotini ta’sis etishga qaror qildik. Hech shubhasiz, bunday mukofot sizlarni yanada katta yutuq va marralarga ilhomlantiradi, deb ishonaman.

Farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik hissi va g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, ularni tariximiz va madaniyatimizga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni endi oilada ham, mahalla, maktab, texnikum va oliygohlarda ham yangicha tashkil etamiz. Bunda hozirgi g‘oyat murakkab zamon talablarini qat’iy hisobga olishimiz zarur. “Yosh avlod tarbiyasi – butun jamiyatning muqaddas burchi, vazifasi” degan ezgu g‘oya har birimizning yuragimizda aks sado berib, kundalik hayotimiz mezoni, mazmuniga aylanishi shart.

Yangi O‘zbekiston yoshlarini “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” deb yashaydigan avlod sifatida kamol toptirishning beqiyos ahamiyatini yaxshi tushunadigan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar boy bilim va tajribangiz, iste’dod va mahoratingiz bilan bu jarayonlarda faol ishtirok etasiz deb ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat tilayman.

G‘oyat sharafli va mas’uliyatli faoliyatingizda doimo zafarlar yor bo‘lsin, aziz ustozlar!

Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti





O‘zbekiston: 35 yillik taraqqiyot va yangi marralar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi asosida “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan maxsus “Smart kitob” infografikalar to‘plami tayyorlandi.

Mazkur ko’rgazmali to’plamda mamlakatimiz taraqqiyotida erishilgan muhim natijalar va kelgusi maqsadlar qulay shaklda yoritilgan. Xususan, to’plamdan quyidagi asosiy ma’lumotlar o’rin olgan:

Islohotlar natijalari raqamlarda: Iqtisodiyot, ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ochiq iqtisodiyot sohasida erishilgan aniq yutuqlar sarhisobi.

Kelgusi o’n yillik — milliy yuksalish davri: Yangi davr uchun aniq maqsad va muddatlar bilan e’lon qilingan 7 ta milliy dasturning (Ta’lim, Sog’lom umr, Yuqori texnologiya, Suv va tabiat, Sud mustaqilligi, Mahalla, Tinchlik diyori) mazmun-mohiyati.

Ta’lim, ilm-fan va yoshlar siyosati: Bog’chadan to universitetgacha bo’lgan qamrov, sun’iy intellekt va IT sohasidagi rejalar hamda yoshlarni qo’llab-quvvatlash ko’rsatkichlari.

Samarqand shahrida “Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot sari” mavzusidagi Jahon sammiti bo‘lib o‘tdi





21-oktabr kuni Samarqand shahrida «Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot sari» mavzusidagi Jahon sammiti doirasida «Sog‘ayishdan farovonlik sari» nomli Bolalar onkologiyasi va gematologiyasi bo‘yicha II xalqaro kongress bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro tadbirlar dunyo bolalarining salomatligi, farovonligi va huquqlarini himoya qilish, shuningdek, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi xonimi, «Zamin» xalqaro jamoat fondi Vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva, O‘zbekiston va boshqa davlatlarning sog‘liqni saqlash sohasi rahbarlari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST), Xalqaro bolalar onkologlari jamiyati, Yevropa onkologiya maktabi vakillari, yetakchi tibbiyot markazlari mutaxassislari, olimlar hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Sammit va kongress doirasida bolalarda o kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash xizmatlar sifatini oshirish, bolalarning ta’lim olishi, ijtimoiy himoyasi va xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, bolalar salomatligi va farovonligiga yo‘naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Tedros Adhanom Gebreyesus xalqaro tadbirlar doirasida Ziroat Mirziyoyevaga onkologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirishdagi yetakchiligi hamda har bir bolaning sog‘lom hayot kechirish huquqini ilgari surishga qo‘shgan hissasi uchun nufuzli xalqaro mukofotni topshirdi.

JSST Bosh direktori Ziroat Mirziyoyevaning bolalar, xususan, onkologik kasalliklarga qarshi kurashayotgan bolalar manfaatlarini himoya qilish, ularning ta’lim olish va sog‘lom hayot kechirish huquqlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini alohida ta’kidladi. 2019-yilda ta’sis etilgan ushbu mukofot aholi salomatligini muhofaza qilish sohasida aniq natijalarga erishgan yetakchilik va yuksak yutuqlar uchun beriladi.

Kongress doirasida og‘ir kasalliklarga chalingan bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Global tarmoq ham tashkil etildi. Birinchi xonimlar va davlat rahbarlarining turmush o‘rtoqlarini birlashtiruvchi ushbu tarmoq raisligiga Ziroat Mirziyoyeva ikki yil muddatga saylandi.

Tadbir ishtirokchilarida «Mehrli Maktab» o‘quvchilarining chiqishlari ham katta taassurot qoldirdi. Bolalar o‘z hayotiy hikoyalari orqali og‘ir kasalliklarga qarshi kurashdagi matonat, umid va ishonchni namoyon etdilar. Ularning chiqishlari bolalarning ehtiyojlari, orzu-umidlari va har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi muhimligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Xalqaro sammit va kongress yakunida bolalar salomatligi va farovonligini ta’minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda hech bir bola zarur tibbiy yordam va e’tibordan chetda qolmasligi uchun xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Xalqaro delegatsiya universitet faoliyati bilan tanishdi

Samarqand shahrida «Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot yo‘lida» Butunjahon sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammit doirasida xalqaro delegatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurib, oliy ta’lim muassasasining faoliyati, ta’lim tizimi, o‘quv jarayonlarini tashkil etish mexanizmlari, zamonaviy ta’lim infratuzilmasi hamda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Delegatsiya tarkibidan Belarus Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Natalya Vladimirovna Pedkevich, Belarus Respublikasining O‘zbekistondagi elchisi Aleksandr Sergeyevich Ogorodnikov, Turkmaniston Tibbiyot universiteti rektori Garabeg Begenjevich Koshaev, Turkmaniston Tibbiyot universiteti Ona va bola salomatligini muhofaza qilish o‘quv-ilmiy markazi direktori Gazigul Saryeva hamda Buxoro davlat tibbiyot universiteti rektori Shuhrat Jumayevich Teshayev o‘rin oldi.

Tashrif davomida mehmonlar universitetda tibbiyot kadrlarini tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va zamonaviy tibbiy ta’lim uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdilar. Shuningdek, tibbiy ta’lim va ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or tajriba almashish hamda kelajak avlod salomatligini muhofaza qilish yo‘nalishlarida hamkorlik istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur tashrif tibbiy ta’lim va ilm-fan sohasida xalqaro muloqotni mustahkamlash, o‘zaro tajriba almashish hamda bolalar salomatligi va farovonligini ta’minlash yo‘lida hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.



Prezidentimiz O‘zbekiston – AQSH iqtisodiy hamkorligining yangi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika – O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashi ikkinchi yig‘ilishining ochilishida ishtirok etdi.

Tadbirda Amerika Qo‘shma Shtatlari Davlat kotibi Marko Rubio, AQSH Prezidentining maxsus vakili Serjio Gor, Amerikaning yetakchi kompaniyalari va banklari vakillari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida muhim minerallarni o‘zlashtirish va chuqur qayta ishlash orqali yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy va barqaror energetika tizimini rivojlantirish, ma’lumotlarni qayta ishlash markazlarini tashkil etish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va davlat boshqaruviga sun’iy intellekt hamda raqamli yechimlarni joriy qilish, ta’lim va kadrlar tayyorlash hamkorlikni yanada kengaytirish uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatib o‘tdi.

Ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini hamda sanoat va texnologiyalar jadal rivojlanishiga xizmat qiladigan yirik markazlarni birgalikda shakllantirish muhimligi qayd etildi.

Kengash ikki mamlakat o‘rtasidagi uzoq muddatli iqtisodiy sheriklikning strategik mexanizmiga aylanishi lozimligi ta’kidlandi. Shu munosabat bilan 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan savdo-investitsiyaviy va texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

Samarqanddagi sammit doirasida “IMKON” markazining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi



«Bolalar farovonligiga investitsiyalar: kelajak avlodlar uchun barqaror va adolatli taraqqiyot yo‘lida» xalqaro sammiti doirasida Samarqandda «IMKON» markazining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva, shuningdek, sammitda ishtirok etgan birinchi xonimlar va yuqori martabali mehmonlar qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Pr huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga kiruvchi ushbu markazda maktabgacha ta’lim, korreksion-pedagogik yorda kompleks reabilitatsiya uyg‘unlashtiriladi. Har bir bola uchun dastur uning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuziladi. Ota-onalar bolasi egallagan ko‘nikmalarni uyda mustahkamlash uchun mutaxassislardan tavsiyalar olishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim bo‘limi 150 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, 2 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 10 ta ixtisoslashtirilgan guruhni o‘z ichiga oladi. Ambulator bo‘limda esa 2 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan oyiga 100 nafarga yaqin bola reabilitatsiya kurslaridan o‘tishi mumkin. Markazda davolovchi jismoniy tarbiya, nutq va mayda motorikani rivojlantirish, sensor integratsiya mashg‘ulotlari, fizioterapiya va boshqa muolajalar o‘tkaziladi. Bu yerda yetti yo‘nalishdagi shifokorlar, defektolog pedagoglar, logopedlar, psixologlar, reabilitatsiya mutaxassislari va boshqa xodimlar faoliyat yuritadi.

Samarqanddagi markaz Nukus, Qibray, Qarshi va Zarafshondagi muassasalarni ham o‘z ichiga olgan «IMKON» tarmog‘ining yangi bo‘g‘iniga aylandi. 2025-yilda tarmoq muassasalarida 546 mingdan ortiq muolaja va mashg‘ulot o‘tkazilib, 3 777 nafar bola ambulator reabilitatsiyadan o‘tgan. Tarmoqni kengaytirish davom etmoqda: Farg‘onada markaz qurilishi boshlangan, Namanganda va Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida ham shunday muassasalar barpo etish rejalashtirilmoqda.

SamDTU va A.S. Pushkin nomidagi davlat rus tili instituti o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi

13-oktyabr kuni universitetga A.S. Pushkin nomidagi Davlat rus tili instituti rektori Nikita Vladimirovich Gusev boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida universitet rahbariyati bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi hamda ikki ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan memorandum imzolandi.

Mazkur tashrif O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi ta’lim, ilm-fan hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi akademik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Imzolangan memorandum ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, o‘zaro tajriba almashish va istiqboldagi qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, A.S. Pushkin nomidagi Davlat rus tili instituti tashabbusi bilan Samarqand davlat tibbiyot universitetida «Kelajak olimlari» xalqaro loyihasi doirasida Rossiyaning yetakchi ilmiy tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalari olimlari, professorlari hamda ekspertlari ishtirokida ilmiy-ma’rifiy ma’ruzalar ham tashkil etildi.



SamDTU va Belarus davlat tibbiyot universiteti o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda



12–17-oktyabr kunlari Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani Belarus Respublikasining Minsk shahrida xizmat safarida bo‘ldi.

Safar davomida Belarus davlat tibbiyot universiteti rektori Sergey Petrovich Rubnikovich bilan uchrashuv o‘tkazildi. Unda 30 nafardan ortiq klinik ordinatorlar uchun yaratilgan sharoitlar, ularning amaliyotga jalb etilishi va kelgusidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, BGMUning 11-sonli talabalar turar joyiga tashrif buyurilib, klinik ordinatorlar bilan ochiq muloqot tashkil etildi. Ularning yashash sharoitlari, ta’lim jarayoni va takliflari bilan yaqindan tanishildi.

Safar doirasida ikki universitet klinik ordinatorlari o‘rtasida do‘stona sport aloqalarini mustahkamlash maqsadida futbol bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvi ham tashkil etildi.

Mazkur tashrif Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Belarus davlat tibbiyot universiteti o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, klinik ordinatorlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni kengaytirish hamda o‘zaro tajriba almashishga xizmat qiladi.

Sog‘liqni saqlash vaziri universitet faoliyati bilan tanishdi



19-oktyar kuni universitetga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri Eldor Erkinovich Adilov tashrif buyurdi.

Vazirni universitet rektori, professor Jasur Rizayev kutib oldi. Tashrif davomida vazir universitetning ta’lim va ilmiy faoliyati, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, o‘quv jarayonlarini tashkil etish tizimi bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, tibbiy ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va bo‘lajak shifokorlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi.

Shundan so‘ng vazir Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko‘p tarmoqli klinikasi faoliyati bilan tanishdi. Xususan, klinikaning xirurgik binosida yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik baza, mutaxassislar va universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan bajarilayotgan yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotlari namoyish etildi.

Tashrif doirasida universitet huzuridagi Immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy-amaliy markazining ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi, shuningdek, Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi qoshidagi 3D modellashtirish va sun’iy intellekt ilmiy-tadqiqot ishlab chiqarish laboratoriyasi faoliyati bilan ham tanishildi. Ushbu laboratoriyalarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, zamonaviy texnologiyalarni tibbiyotga joriy etish hamda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish borasidagi ishlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Vazir universitet va klinika hamkorligida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarni yuqori baholab, tibbiy ta’lim va amaliy tibbiyot integratsiyasini yanada rivojlantirish muhimligini ta’kidladi. Shu bilan birga, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirish, xususan, klinikada shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarurligiga alohida e’tibor qaratdi. Mazkur tashrif universitetda ta’lim, ilm-fan va klinik amaliyot uyg‘unligini mustahkamlash, tibbiyot sohasiga zamonaviy innovatsiyalarni keng joriy etish hamda aholi uchun sifatli va samarali tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish yo‘lidagi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Saudiya Arabistoni kompaniyasi bilan hamshiralar tayyorlash borasida hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi

19-oktyabr kuni universitetga Saudiya Arabistonining «Kdot Partners» kompaniyasi rahbari Faysal al-Dovud boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Tashrif davomida universitet rahbariyati va delegatsiya a’zolari o‘rtasida uchrashuv tashkil etilib, tibbiy ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, hamshiralik ishi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish hamda bitiruvchilarni Saudiya Arabistonida ishga joylashtirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Xususan, «Kdot Partners» kompaniyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan «Hamshiralik amaliyotiga o‘tish va malaka oshirish dasturi» (Nursing Transition to Practice and Skills Enhancement Program) doirasida universitet bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘quv markazlarini tashkil etish, hamshiralarni xalqaro mehnat bozori talablari asosida tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda «Kdot Partners» kompaniyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Shuningdek, hamkorlikning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar, qo‘shma o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, mutaxassislar tayyorlash va kelgusida amaliy hamkorlikni kengaytirish yuzasidan fikr almashildi.





Yaponiyaning yetakchi kompaniyasi bilan hamkorlik aloqalari muhokama qilindi

12-oktyabr kuni universitetga Yaponiya–O‘zbekiston Ipak yo‘li jamg‘armasi (JUSRF) delegatsiyasining «Sog‘liqni saqlash» ishchi guruhi vakillari tashrif buyurdi.

Delegatsiyaga jamg‘arma direktori, sog‘liqni saqlash bo‘yicha ishchi guruh rahbari, «Sakura Global Holding» kompaniyasi direktorlar kengashi raisi hamda OMETA tashkiloti raisi Kenichi Matsumoto rahbarlik qildi.

Tashrif doirasida universitet rektori, professor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, sog‘liqni saqlash va tibbiy ta’lim sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, Yaponiya tajribasini o‘rganish hamda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Mazkur uchrashuv O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ilg‘or tajriba almashinuvini kengaytirish hamda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shma tashabbuslar uchun muhim muloqot maydoni bo‘lib xizmat qiladi.



SamDTU magistranti respublika ko‘rik-tanlovida sovrindor bo‘ldi!

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘tkazilgan «Kelajak muhandislari» ko‘rik-tanlovining respublika bosqichida Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistranti Bahronova Dilshoda Tohirovna munosib ishtirok etdi.

Iqtidorli talabamiz o‘zining «Urinal Eco» innovatsion loyihasi bilan tanlovning «Eng yaxshi g‘oya» yo‘nalishi, «Talaba» kategoriyasida faxrli 3-o‘rinni egalladi.

Bahronova Dilshoda Tohirovnani ushbu yutuq bilan qutlab, kelgusidagi o‘qish va ilmiy-innovatsion faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz!

Ilmiy maydon

“Craniofacial Consilium” xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi

Samarqand shahrida 9–10-oktyabr kunlari stomatologiya, yuz-jag‘ jarrohligi hamda otorinolaringologiyaning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan “Craniofacial Consilium” xalqaro kongressi bo‘lib o‘tdi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti mezbonlik qilgan mazkur ilmiy-amaliy kongressda respublikamiz mutaxassislari bilan bir qatorda Avstraliya, Shveysariya, Finlandiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya va Yevropaning qator davlatlaridan 700 ga yaqin mutaxassis ishtirok etdi.

Tadbirning ochilish marosimida Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev, Sidney universiteti professori va ortodontiya kafedrasi rahbari M. Ali Darendeliler, shuningdek, xalqaro tibbiyot va stomatologiya sohasi vakillari qatnashdi.

Ochilish marosimi doirasida universitet ilmiy kengashi qaroriga muvofiq, Xitoy Xalq Respublikasidagi Shantou universiteti tibbiyot kollejiga qarashli Onkologiya shifoxonasi bosh va bo‘yin xirurgiyasi bo‘limi rahbari, professor Peng Hanweiga hamda Rossiya Federatsiyasidagi Moskva viloyati ilmiy-tadqiqot klinik instituti (MONIKI) Xirurgik stomatologiya va implantologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Malkan Abdrashidovna Ahmadovaga Samarqand davlat tibbiyot universitetining Faxriy professori unvoni topshirildi. Ular mazkur unvonga yoshlarni tarbiyalash va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissalari uchun sazovor bo‘ldilar.

Anjuman doirasida Samarqand davlat tibbiyot universiteti Shveysariyaning COLTENE/Whaledent AG kompaniyasi hamda Bosniya va Gersegovinaning Tuzla universiteti klinik markazi bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan memorandumlarni imzoladi.

Ikki kun davom etgan ilmiy dastur stomatologiya, yuz-jag‘ jarrohligi va otorinolaringologiya yo‘nalishlarini qamrab oldi. Plenar majlislar va sho‘ba yig‘ilishlarida tish-jag‘ tizimi kasalliklarini tashxislash va davolash, ortodontik muammolar, implantologiya, rekonstruktiv jarrohlik, eshitish bilan bog‘liq kasalliklar hamda zamonaviy jarrohlik usullari yuzasidan ma’ruzalar tinglandi.

Xorijiy va mahalliy mutaxassislar o‘zlarining klinik tajribalari, ilmiy ishlanmalari va amaliy kuzatuvlari bilan o‘rtoqlashdilar. Xususan, raqamli diagnostika, uch o‘lchamli modellashtirish, virtual jarrohlikni rejalashtirish va navigatsion texnologiyalarning tibbiyot amaliyotidagi o‘rni muhokama qilindi. Bunday zamonaviy yondashuvlar murakkab klinik holatlarda aniq tashxis qo‘yish va bemorlar uchun individual davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, «Craniofacial Consilium» kongressining amaliy dasturi doirasida 10-oktabr kuni Samarqand davlat tibbiyot universitetining Ko‘p tarmoqli klinikasida «Live surgery» — jonli jarrohlik amaliyoti tashkil etildi. Unda xitoylik professor Hanwei Peng ishtirokida murakkab bo‘yin patologiyasiga oid jarrohlik amaliyoti namoyish etildi.

«Craniofacial Consilium» kongressi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va tibbiyot sohasida yangi ilmiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy muloqot maydoniga aylandi. Bunday tadbirlar Samarqand davlat tibbiyot universitetining xalqaro tibbiy hamkorlik markazlaridan biri sifatidagi mavqeini mustahkamlash bilan birga, mahalliy mutaxassislar va yosh tadqiqotchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.





Samarqandda laboratoriya diagnostikasi bo‘yicha xalqaro konferensiya o‘tkazildi

2026-yil 30-sentabr kuni universitetimiz tomonidan “Hilton Samarkand Regency” mehmonxonasida laboratoriya diagnostikasi bo‘yicha xalqaro konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyani universitetning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Aziz Saydolimovich Kubayev hamda «Mindray» kompaniyasining Markaziy Osiyo bo‘yicha vakolatxonasi bosh direktorining o‘rinbosari Valentin Anatolyevich Ten qutlov so‘zlari bilan ochib berdilar.

Anjumanning asosiy qismida laboratoriya diagnostikasi sohasidagi dolzarb masalalar, zamonaviy texnologiyalar va yangi diagnostika usullariga bag‘ishlangan ma’ruzalar tinglandi.

Xususan, Samarqand viloyatida laboratoriya xizmatini tashkil etish, Samarqand davlat tibbiyot universiteti Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining faoliyati, hujayralarning raqamli morfologiyasi hamda uning differensial diagnostikadagi imkoniyatlari yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, autoimmun gemolitik anemiyada jigar zararlanishining klinik-laborator diagnostikasi, o‘sma markerlarini tahlil qilish, laboratoriya tekshiruvlarida yangi texnologiyalar va avtomatlashtirish imkoniyatlari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, nafas olish a’zolari sili qaytalanishining klinik kechishini baholashda biomarkerlar va immunobiokimyoviy markerlarning o‘rni, shuningdek, oqim sitometriyasi yordamida eritrotsitlarni tekshirishning zamonaviy usullari yuzasidan ma’ruzalar tinglandi.

Konferensiyada o‘zbekistonlik mutaxassislar bilan bir qatorda Rossiya va Qozog‘istondan tashrif buyurgan soha vakillari ham ishtirok etib, laboratoriya diagnostikasining bugungi holati, zamonaviy texnologiyalar va amaliy tajribalar yuzasidan fikr almashdilar.

«Aniq diagnostika — zamonaviy davolashning asosidir» shiori ostida o‘tkazilgan mazkur xalqaro konferensiya mutaxassislar uchun o‘zaro tajriba almashish, yangi bilim va yondashuvlarni muhokama qilish hamda laboratoriya diagnostikasi yo‘nalishidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy muloqot maydoniga aylandi.

“Oftalmologiya istiqbollari va rivojlanishida yosh olimlarning o‘rni” mavzusida xalqaro anjuman o’tkazildi

17-oktyabr kuni yosh olimlarning ilmiy salohiyatini oshirish, oftalmologiya sohasidagi dolzarb muammolarni muhokama qilish hamda zamonaviy ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishga bag‘ishlangan «Oftalmologiya istiqbollari va rivojlanishida yosh olimlarning o‘rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamkorligida tashkil etilgan anjumanda mahalliy hamda xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tibbiy markazlar vakillari, professor-o‘qituvchilar, magistrlar, klinik ordinatorlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar ishtirok etdi.

Konferensiyaning asosiy maqsadi yosh tadqiqotchilarga o‘z ilmiy izlanishlari natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etish, tajriba almashish, yangi ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish va oftalmologiya sohasidagi istiqbolli tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun imkoniyat yaratishdan iborat bo‘ldi.

Anjuman doirasida ko‘z kasalliklarini erta aniqlash va davolash, glaukoma va miopiya, diabetik retinopatiya, ko‘z jarohatlari, bolalar oftalmologiyasi, zamonaviy diagnostika usullari, optik kogerent tomografiya hamda tibbiyotda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kabi dolzarb yo‘nalishlarda ilmiy ma’ruzalar tinglandi. Yosh olimlar o‘z tadqiqot natijalarini taqdim etib, soha mutaxassislari bilan ilmiy munozara va fikr almashuvlarda qatnashdilar.



Konferensiyada Rossiya, Belarus, Tojikiston va Qozog‘istonning yetakchi tibbiyot oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlari vakillarining ishtirok etishi tadbirning xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Yosh olimlarning ilmiy izlanishlari — tibbiyot kelajagi, zamonaviy oftalmologiya taraqqiyoti va inson salomatligini asrash yo‘lidagi muhim qadamdir.



“Med Talk” intellektual debatlari o‘tkazildi

Universitetda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida «Med Talk» intellektual debatlari bo‘lib o‘tdi.

Tadbir universitetning Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo’limi tashabbusi bilan tashkil etildi. Unda talabalardan iborat jami 8 ta jamoa ishtirok etib, bahslar o‘zbek va rus tillarida (har bir yo’nalishda 4 tadan jamoa) olib borildi.

Debatlar davomida ishtirokchilarga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) kun tartibidan o’rin olgan eng dolzarb ijtimoiy va global masalalar taqdim etildi. Qizg’in munozaralar jarayonida talabalar o‘z pozitsiyalarini aniq fakt va dalillar bilan himoya qilish, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash va katta auditoriya oldida erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini amalda namoyon etdilar.

Bunday intellektual tadbirlar bo’lajak tibbiyot xodimlarining nafaqat o’z sohasi, balki xalqaro jarayonlar haqidagi dunyoqarashini kengaytirishga, shuningdek, jamiyatdagi dolzarb masalalar yuzasidan o‘z fikrini erkin va ravon ifoda etish layoqatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yakunda e’tirof etilganidek, «Med Talk» platformasi talabalar uchun o’zaro bilim va tajriba almashish, yangi g’oyalar bilan o’rtoqlashish hamda mazmunli bahs-munozara olib borish uchun muhim maydon vazifasini o’tab berdi.

Tibbiy ta’limni akkreditatsiyalash tizimi xalqaro baholashdan o‘tmoqda: Jarayonlar Samarqand davlat tibbiyot universitetida kuzatilmoqda

Butunjahon tibbiy ta’lim federatsiyasi (WFME) ekspertlari O’zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining tibbiy ta’limni akkreditatsiyalash faoliyatini xalqaro standartlar asosida baholamoqda.

Ushbu nufuzli xalqaro o’rganishlar doirasida ekspertlar Samarqand davlat tibbiyot universitetida o‘tkazilgan davlat akkreditatsiyasi jarayonlarini bevosita kuzatib borishdi.

WFME baholashining asosiy markazida – Agentlikning akkreditatsiya tizimi qanchalik ishonchli va shaffof ishlashi yotadi.

Xususan, xalqaro ekspertlar quyidagi yo’nalishlarga alohida e’tibor qaratmoqda:

- Tashqi baholash mexanizmlarining amaliyotda qanday tashkil etilishi;
- Akkreditatsiya ekspertlarini tanlash va ularni tayyorlash metodikasi;
- Jarayonda qaror qabul qilishning mutlaqo mustaqilligi va ochiqligi;
- Akkreditatsiyadan keyingi davrda ta’lim muassasasi ustidan monitoring olib borish tizimi.

Ushbu jarayonlar yakuniga ko’ra ijobiy qaror qabul qilinsa, milliy Agentligimizning tibbiy ta’limni akkreditatsiyalash faoliyati WFME mezonlariga to’la muvofiqligi xalqaro darajada tan olinadi. Bu esa o’z navbatida milliy tibbiy ta’lim dargohlari, jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti diplomlarining xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Eslatib o’tamiz, hozirgi kunda WFMEning rasmiy ro‘yxatidan 50 dan ortiq xalqaro miqyosda tan olingan akkreditatsiya agentliklari joy olgan bo’lib, ular qatorida AQSh, Kanada, Yaponiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning agentliklari ham mavjud.





“BESH MUHIM TASHABBUS” DOIRASIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY VA MADANIY TADBIR TASHKIL ETILDI

Boshqaruv va menejment fakulteti Tibbiy biologiya va genetika kafedrasi tashabbusi bilan 3-son talabalar turar joyida “Besh muhim tashabbus” doirasida ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida talabalar o‘rtasida rassomchilik, she’rxonlik, raqs, shuningdek, shaxmat va shashka yo‘nalishlari bo‘yicha qiziqarli bellashuvlar o‘tkazildi. Musobaqalarda talabalar o‘zlarining ijodiy qobiliyati, zukkoligi, iste’dodi va intellektual salohiyatini namoyon etib, faol ishtirok etdilar.

Tadbir yakunida bellashuvlarda yuqori natijalarga erishgan g‘olib va faol ishtirokchilar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Bunday tadbirlar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish hamda talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat va do‘stona muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.





ILM VA MA’RIFAT FIDOYILARIGA YUKSAK EHTIROM!

1-oktyabr — Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan universitetda ustoz va murabbiylarga hurmat-ehtirom ko‘rsatishga bag‘ishlangan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Bayram tadbiri Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyati musiqali drama teatrida ko‘tarinki kayfiyatda tashkil etildi. Unda universitet professor-o‘qituvchilari, jamoatchilik vakillari hamda universitet jamoasi ishtirok etdi.

Tadbirda universitet rektori, professor Jasur Rizayev so‘zga chiqib, mamlakatimiz taraqqiyoti, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va malakali mutaxassislarni tayyorlashda ustoz va murabbiylarning o‘rni beqiyos ekanligini alohida ta’kidladi. Shuningdek, universitet professor-o‘qituvchilarini kasb bayrami bilan samimiy muborakbod etib, ularga mustahkam sog‘lik, oilaviy xotirjamlik va sharafli faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Tadbir davomida o‘zining ko‘p yillik samarali mehnati, fidoyiligi va ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘shayotgan munosib hissasi bilan jamoada alohida o‘rin tutgan professor-o‘qituvchilar munosib taqdirlandi. Ularga ko‘krak nishonlari, tashakkurnomalar hamda esdalik sovg‘alari tantanali ravishda topshirildi.

Tadbirning ikkinchi qismi esa san’atkorlarning chiqishlari, kuy-qo‘shiqlarni o‘z ichiga olgan bayramona konsert dasturi bilan davom etdi.



“MA’RIFAT ULASHIB” LOYIHASI DOIRASIDA UCHRASHUV TASHKIL ETILDI

Universitetda yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini kengaytirish, ularni kitobxonlikka, ilm-ma’rifatga va ezgu qadriyatlarga undash maqsadida «Ma’rifat ulashib» loyihasi doirasida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda taniqli ijodkorlar Baxtiyar Genjemuratov, Rustam Musurmon hamda Masihulloh Madaminovlar ishtirok etib, talaba-yoshlar bilan samimiy muloqot qildilar.

Tadbir davomida yoshlar bilan ma’naviyat, kitobxonlik, ilm olish, hayotiy maqsadlar va bugungi yosh avlod oldidagi muhim vazifalar haqida fikr almashildi. Uchrashuv davomida ijodkorlarning ijod namunlaridan namunalar o’qilib, adaiyot haqida fikr almashildi.

Uchrashuv yoshlar qalbida ilm-ma’rifatga bo‘lgan intilishni yanada kuchaytirib, ularni kitobxonlikka, ezgu maqsadlar sari intilishga va ma’naviy barkamollikka undovchi unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi.










Ustoz

Sohibqiron yotar ustoz poyida,
Jomiyni pir tutgan Navoiy hazrat.
Ustoz buyuk degan buyuk qoida —
Bu qaytar dunyoda azaliy hikmat.

Aflotunga shogird edi Arastu,
Ul shogirdga shogird bo‘ldi Iskandar.
Bu oltin silsila davomiy mangu,
O‘zi ustoz bo‘lar ustoz ko‘rganlar.

Bormi murabbiydan baxtliroq inson,
Shogirdlari qilsa yuksakka parvoz.
Boshimizga tojsiz, bor bo‘ling omon,
Tabarruklar ichra tabarruk ustoz!

Muallif: Erkin Vohidov



“MILLIY QADRIYATLAR VA ULARNING MILLAT MA’NAVIYATIDAGI O’RNI. JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT BILAN KURASHAMIZ” SHIORI OSTIDA TADBIR O’TKAZILDI

Universitetda talaba-yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash hamda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish masalalariga bag‘ishlangan uchrashuv tashkil etildi.

Tadbirda Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i S. Boymurodov ishtirok etib, talaba-yoshlar bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishda ma’rifatning o‘rni xususida fikr almashdi.

Muloqot davomida milliy an’analarimizni asrab-avaylash, ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan boy ma’naviy merosni chuqur o‘rganish, yoshlar orasida bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va diniy-ma’rifiy bilimlarni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



“BIZ – YANGI O‘ZBEKISTON FARZANDIMIZ!” VIDEO CHALLENGE G‘OLIBLARI ANIQLANDI!

Yoshlarning Vatanga bo‘lgan muhabbati, Yangi O‘zbekiston bunyodkorligidagi ishtiroki va ijodiy salohiyatini namoyon etish maqsadida tashkil etilgan “Biz — Yangi O‘zbekiston farzandimiz!” video challenge o‘z nihoyasiga yetdi.

Hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchilarning ijodiy ishlari belgilangan mezonlar asosida baholanib, g‘oliblar quyidagicha aniqlandi:

1-o‘rin
Allayorova Sabrina
Davolash fakulteti
2-kurs, 220-guruh talabasi

2-o‘rin
Tog‘ayev Shehruz
Pediatriya fakulteti
103-guruh talabasi

3-o‘rin
Akramova Muyassar
Davolash ishi
1-kurs, 104-guruh talabasi

Ismatullayeva Shohsanam
Pediatriya fakulteti
3-kurs, 323-guruh talabasi

Barcha g‘oliblarimizni samimiy muborakbod etamiz!

Sizlarning ijodingiz, tashabbusingiz va Vatanga bo‘lgan muhabbatingiz yoshlar uchun munosib namuna bo‘la oladi.

“IT QUEENS – KELAJAKNI YARATUVCHI QIZLAR” TANLOVINING VILOYAT BOSQICHI BO‘LIB O‘TDI



3-oktabr kuni Samarqand davlat universitetining Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar institutida “IT Queens — kelajakni yaratuvchi qizlar” innovatsion tanlovining Samarqand viloyati hududiy bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovda oliygoh bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar dasturiy ta’minot, mobil ilovalar, veb-ishlanmalar, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, raqamli ta’lim, mexatronika va robototexnika, aqlli qurilmalar hamda IoT yo‘nalishlarida o‘z innovatsion loyihalari bilan ishtirok etdilar.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti 507-guruh talabasi Malika Abduvaliyeva «Veb-ishlanmalar» yo‘nalishida faxrli 1-o‘rinni egalladi. Mazkur g’alaba bo’lajak shifokorlarning axborot tizimlarini yaratishdagi yuqori salohiyatini namoyon etdi.

Ushbu muvaffaqiyat orqali Malika tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritdi.





“TIL - MILLAT KO‘ZGUSI” MAVZUSIDA MADANIY-MA’RIFIY TADBIR TASHKIL ETILDI

Boshqaruv va menejment fakulteti talabalari o‘rtasida 21-oktyabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan “Til - millat ko‘zgusi” mavzusida madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirning asosiy maqsadi talaba-yoshlar o‘rtasida ona tilimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromni yanada oshirish, o‘zbek tilining milliy qadriyatlarimiz va ma’naviy merosimizdagi o‘rnini keng targ‘ib qilish, shuningdek, yoshlarni ona tilimizni asrab-avaylash va uning sofligini saqlash ruhida tarbiyalashdan iborat bo‘ldi.

Tadbir davomida o‘zbek tilining tarixi, rivojlanish bosqichlari, davlat tili sifatidagi ahamiyati hamda bugungi kundagi nufuzi haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Talabalar tomonidan ona tilini ulug‘lovchi she’rlar, hikmatli so‘zlar va badiiy chiqishlar namoyish etildi.

Shuningdek, yoshlar o‘rtasida adabiy til me’yorlariga rioya qilish, nutq madaniyatini rivojlantirish va kundalik hayotda o‘zbek tilidan to‘g‘ri hamda samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.



SAMARQAND SHAHRIDA O‘ZBEK TILI BAYRAMI MUNOSABATI BILAN MA‘NAVIY-MA‘RIFIY TADBIR O‘TKAZILDI

Samarqand shahridagi markaziy istirohat bog‘ida O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 37 yil to‘lishi hamda O‘zbek tili bayrami munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Unda viloyat hokimligi mas’ullari, yozuvchi va shoirlar, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchi va talabalari, harbiylar, milliy madaniy markazlar, mahallalar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Shu jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham bayram munosabati bilan Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo’yish marosimida ishtirok etdi.

Tadbir ona tilimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromni yanada yuksaltirish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda o‘zbek tilining nufuzini oshirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etdi.



“ONA TILIM – FAXRIM” NOMLI MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIR TASHKIL ETILDI

Boshqaruv va menejment fakulteti talaba-yoshlari o‘rtasida 21-oktyabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan DXSH TTJda «Ona tilim — faxrim» nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

O‘zbek tilining sofligini saqlash, adabiy til me’yorlariga rioya qilish, nutq madaniyatini yuksaltirish va ona tiliga bo‘lgan hurmatni kundalik hayotda namoyon etish zarurligi tushuntirildi.

Shuningdek, talabalar o‘rtasida ona tili, adabiyot va milliy qadriyatlarimizga oid savol-javoblar hamda intellektual bellashuvlar tashkil etildi.

Самарқанд давлат тиббиёт университети фаолиятига улкан зафарлар тилайман. Узоқ йиллар давомида гуллаб - яшнасин!

Адилов З.Т. 19.10.2026 й.

UNIVERSITET TARIXI MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN

قد سعدت جدا بزيارة جامعة سمرقند الطبية وكذلك بالمتحف الذي يوثق تاريخ الجامعة الحافل بالانجازات التي تدل على الجهود الكبيرة التي بذلت منذ عام ١٩٣٠.

وحاليا بقيادة سعادة البروفيسور رينين جاسور وتحت حكومة رئيس جمهورية أوزبكستان/ شوكت ميرزيوف رأيت جهودا كبيرة في القطاع الصحي والتعليم، وفقه الله تعالى لمواصلة الجهود بالتركيز على قطاعات التعليم العالي في الجمهورية العربية السورية.

فيصل عبد الودود
19Oct2026

21-22 октября 2026 года делегация Государственного медицинского университета Туркменистана посетила университет. Впечатление достижение им. Очень много общего. Желаем самого наилучшего и дальше развивать медицинское образование и науку. Надеюсь на дальнейшее тесное сотрудничество

Ректор Муратназарова Н.А.

I am very proud of visiting this medical University on Oct. 12, 2026.
今日、私はこの厚生労働医科大学を訪問できて大変光栄です。
I wish this University growing year and year Kinaroly.
サミナグローバル ホールディングス 代表取締役 会長
日本医療機器工業会 (JAMDI) 会長
日本医療機器技術協力会(OMETA) 会長 松本譲一
同行者：笑野 卓、南崎拓哉、長谷川ミチ子



HINDISTONLIK TALABALAR O‘ZBEK MILLIY MADANIYATI BILAN YAQINDAN TANISHDILAR

Universitetda tahsil olayotgan hindistonlik talabalar ishtirokida milliy madaniyat va qadriyatlarni targ‘ib etishga qaratilgan madaniy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida talabalar o‘zbek milliy liboslari, xalqimizning boy madaniy merosi, urf-odatlari va an’analari bilan yaqindan tanishdilar. Ular o‘zbek xalqining milliy qadriyatlariga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, mamlakatimiz madaniyati haqida yanada kengroq tasavvurga ega bo‘ldilar.

Bunday madaniy tadbirlar turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlash, madaniy hamjihatlikni rivojlantirish hamda universitetda xalqaro do‘stlik muhitini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.



XORIJLIK TALABALAR O‘RTASIDA O‘ZBEK TILI BILIMDONLARI ANIQLANDI

Ta’lim va ilm-fan vazirligi tomonidan o‘tkazilgan yurtimiz oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar o‘rtasida o‘zbek tilidan respublika olimpiadasida 46 ta oliy ta’lim tashkilotidan 15 ta xorijiy davlat vakili bo‘lgan 74 nafar talaba ishtirok etdi.

Ishtirokchilar leksik-grammatik test, tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozma va og‘zaki nutq yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazdi.

Olimpiadaning asosiy yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblar:

1-o‘rin: Ahmed Mabroor (Pokiston) – Samarqand davlat universiteti;
2-o‘rin: Abdurakhmon Khabibullaev (Qirg‘iziston) – O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi;
3-o‘rin: Marguba Melonova (Rossiya Federatsiyasi) – Qo‘qon davlat universiteti.

«Til targ‘ibotchiligi» nominatsiyasi g‘oliblari:

1-o‘rin: Akhmad Usman (Pokiston) – Buxoro davlat universiteti;
2-o‘rin: Sadat Nesar Ahmad (Afg‘oniston) – Samarqand davlat tibbiyot universiteti;
3-o‘rin: Shahvej Alam (Hindiston) – Toshkent davlat tibbiyot universiteti.

G‘olib va sovrindorlar diplomlar hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

XALQARO TA’LIM FAKULTETINING BITIRUVCHI BOSQICH TALABALARI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZILDI


Uchrashuvda Xalqaro ta’lim fakulteti dekani hamda 6-kurs talabalari ishtirok etib, bitiruv bosqichidagi talabalarning o‘quv jarayoni, yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik ko‘rishi va mazkur jarayonni tartibli hamda samarali tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Tadbir davomida talabalarga yakuniy davlat attestatsiyasining maqsadi, uni o‘tkazish tartibi va bosqichlari, imtihon jarayoniga tayyorgarlik ko‘rishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar haqida batafsil ma’lumot berildi. Shuningdek, bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyaga puxta tayyorgarlik ko‘rishi, bilim va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashi, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishi yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Uchrashuvning muhim yo‘nalishlaridan yana biri talaba-yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda giyohvandlik vositalarining salbiy oqibatlaridan yoshlarni ogohlantirish masalalariga bag‘ishlandi.


Profilaktik suhbat davomida, ayniqsa, xorijiy talabalarni turli salbiy ta’sirlardan himoyalanish, qonunchilik talablariga qat’iy rioya qilish, turli huquqbuzarlik holatlariga aralashmaslik va hushyorlikni oshirishga chaqirildi. Talabalarga giyohvandlikning inson salomatligi, ta’lim olishi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga salbiy ta’siri haqida tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, universitetning ichki tartib-qoidalariga amal qilish, o‘zaro hurmat va mas’uliyat tamoyillariga rioya etish muhimligi alohida ta’kidlandi. Uchrashuv ochiq muloqot va savol-javob shaklida o‘tkazilib, talabalar o‘zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan mutasaddilardan tegishli ma’lumot va tavsiyalar oldilar.



YORUG‘LIK YORDAMIDA NERV HUJAYRALARINI BOSHQARISH: TIBBIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI ANIQLANDI

2026-yilda fiziologiya va tibbiyot bo‘yicha Nobel mukofoti Karl Deysserot, Peter Hegemann va Georg Nagelga topshirildi. Olimlar yorug‘lik ta’sirida ishlaydigan ion kanallari sohasidagi kashfiyotlari hamda optogenetika rivojiga qo‘shgan hissasi uchun ushbu nufuzli mukofotga sazovor bo‘ldi. Bu haqda Nobel qo‘mitasi ma’lum qildi.



Peter Hegemann va Georg Nagel bir hujayrali suv o‘tlarida yorug‘likka sezgir kanalorodopsin oqsilini aniqladi. Keyinchalik Karl Deysserot ushbu kashfiyotdan foydalanib, yorug‘lik impulslari yordamida nerv hujayralari faolligini boshqarish imkonini beruvchi texnologiyani ishlab chiqdi.

Mazkur usul «optogenetika» deb nomlandi. U olimlarga ayrim neyronlarni tanlab faollashtirish yoki ularning faoliyatini susaytirish, shuningdek, xotira, hissiyotlar va xulq-atvor qanday shakllanishini o‘rganish imkonini beradi. Bu texnologiya yordamida miyaning turli neyron tarmoqlari qanday ishlashi va ularning vazifalarini yanada chuqurroq o‘rganish mumkin.

Hozirgi vaqtda optogenetika tibbiyot sohasida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Tadqiqotchilar ushbu usulni nevrologik va ruhiy kasalliklarni davolash, shuningdek, ko‘rish qobiliyatini tiklashga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganmoqda.

Mukofot sohiblari jami 12 million Shvetsiya kronasi (1 209 600 $) miqdoridagi pul mukofotini o‘zaro taqsimlaydi. Har bir laureat mukofotning uchdan bir qismiga ega bo‘ladi.

Karl Deysserot — amerikalik neyrobiolog, bioinjener va psixiatr, Stenford universiteti professori. U Garvard universitetini tamomlagan, Stenford universitetida esa neyrobiologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va tibbiyot doktori (MD) ilmiy darajalarini olgan. Ilmiy faoliyati bilan bir qatorda, Deysserot klinik psixiatriya bilan ham shug‘ullanadi. Uning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri muayyan nerv hujayralari faoliyatini boshqarishda yorug‘likka sezgir oqsillardan foydalanish hisoblanadi.

Peter Hegemann — nemis birofizigi, Berlin shahridagi Gumboldt universiteti professori. U bir hujayrali yashil suv o‘tlarining yorug‘likni qanday qabul qilishi va unga qanday javob berishini o‘rgangan. Georg Nagel bilan birgalikda Hegemann ushbu organizmlarda aniqlangan yorug‘likka sezgir oqsillar — kanalorodopsinlarni tadqiq qilgan.

Georg Nagel — nemis birofizigi. U Konstans universitetida biologiya va biofizika yo‘nalishlarida tahsil olgan, Frankfurt shahrida doktorlik darajasini olgan. Shuningdek, AQShdagi Yel va Rokfeller universitetlarida faoliyat yuritgan. 2004-yildan buyon Vyursburg universitetida ishlaydi. Hozirda u mazkur universitet Fiziologiya instituti katta professori hisoblanadi.



YURAK ISHEMIK KASALLIGIDA ENDOTELIAL DISFUNKSIYANI PRETSIZION YONDASHUVLAR YORDAMIDA DAVOLASH MUMKINMI?

Yurak ishemik kasalligi dunyo miqyosida aholi o‘limi va nogironligining asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur patologiyaning patogenezida qon tomirlarining ichki qavati — endoteliy funksiyasining buzilishi muhim o‘rin tutadi. Endotelial disfunksiya tomirlarning kengayishi va torayishi o‘rtasidagi me’yoriy muvozanatni izdan chiqarib, ateroskleroz progressiyalanishi uchun zamin yaratadi.

Shu bois kasallikni erta bosqichlarda aniqlash va uning rivojlanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatish zamonaviy tibbiyotning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti tomonidan amalga oshirilayotgan «Yurak ishemik kasalligida endotelial disfunksiyani davolash uchun pretsizion yechimlarni joriy etish» mavzusidagi innovatsion amaliy tadqiqot granti aynan ushbu muammoni ilmiy jihatdan hal etishga qaratilgan.

Loyiha rahbari, tibbiyot fanlari doktori, professor Eleonora Tashkenbayeva boshchiligida olib borilayotgan mazkur ilmiy izlanish negizida pretsizion, ya’ni yuqori aniqlikdagi va individual yondashuv yotadi. Ma’lumki, bir xil tashxis qo‘yilgan bemorlarda ham kasallikning klinik kechishi, terapiyaga bo‘lgan javob reaksiyasi va asoratlar yuzaga kelish xavfi turlicha namoyon bo‘ladi. An’anaviy davolash usullari ko‘pincha barcha bemorlarga nisbatan bir xil mezonlar asosida qo‘llaniladi. Pretsizion yechimlar esa, aksincha, har bir bemorning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda davolash taktikasini personallashtirish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, farmakoterapiya samaradorligini oshirish, samarasiz dori vositalarini buyurishning oldini olish hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyiha davlat tomonidan moliyalashtirilmoqda. 2026-yil 1-iyul kuni Innovatsion rivojlanish agentligi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, loyiha rahbari hamda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi o‘rtasida davlat buyurtmasi asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish to‘g‘risida shartnoma imzolandi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur loyiha yurak ishemik kasalligiga qarshi kurashishda zamonaviy, ilmiy asoslangan yondashuvni tatbiq etish yo‘lidagi muhim qadamdir. Tadqiqot natijalari kardiologiya amaliyotiga joriy etilib, patologiyani erta bosqichda aniqlash, bemorlarga individual davo muolajalarini tanlash va yurak-qon tomir asoratlari xavfini kamaytirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, loyiha tibbiyot fani va amaliyoti o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlab, yosh mutaxassislarning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tibbiyot fanlari doktori, professor Tashkenbayeva Eleonora Negmatovna

SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Onkologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
3-son ichki kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
2-son xirurgik kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
1-son xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

PEDIATRIYA ISHI FAKULTETI

2-son pediatriya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Travmatologiya va ortopediya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Pediatriya fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Yuqumli kasalliklar va DKTF Yuqumli kasalliklar kursi bilan kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Ortopedik stomatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FAKULTETI

Endokrinologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.
Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
2-son ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

BOSHQARUV VA MENEJMENT FAKULTETI

Tibbiy biologiya va genetika kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
Gistologiya, embriologiya va sitologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin. Katta o‘qituvchi, assistent yoki stajyor assistent lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin. Hujjatlar e’lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV
Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV
Tahrir hay’ati:
G‘.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, B.E.To‘xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, U.S.Pulatov N.M. Shavazi.

SHIFOKOR SO`ZI
Nashr uchun mas’ul:
O. Muratov
Operator va sahifalovchi:
A. Xolboyev
Fotomuxbir:
O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta «Erudit» MChJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi. 2 bosma taboq.
Nashrga ruxsat berildi: 2026-yil, 28-oktabr. Adadi 500 nusxa. Buyurtma: 807